

TO‘LAGAN XO‘JAMYOROV- TAVALLO IJODIY MEROSINI O‘RGANISH

Dexqonova Moxira G‘ayratjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti Filologiya

fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yirik vakili bo‘lgan To‘lagan Xo‘jamiyorov (Tavallo) ijodiy merosi hamda uning o‘zbek adabiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada shoir asarlaridagi milliylik, Vatan va erkinlik g‘oyalari yoritiladi. Shuningdek, uning ijodining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, davr adabiy jarayoni bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik harakati, "Ravnaq ul- islom", ijodiy meros, milliylik, erkinlik, adabiy jarayon.

Аннотация: В данной статье анализируется творческое наследие Тулагана Ходжамёрова (Тавалло), крупного представителя джадидского движения, а также его значение в узбекской литературе. В статье освещаются идеи национальности, Родины и свободы в произведениях поэта. Также рассматриваются идейно-художественные особенности его творчества и его связь с литературным процессом своего времени.

Ключевые слова: джадидское движение, «Равнак ул-ислом», творческое наследие, национальность, свобода, литературный процесс

Annotation: This article analyzes the creative heritage of To‘lagan Xo‘jamiyorov (Tavallo), a prominent representative of the Jadid movement, and its significance in Uzbek literature. The article highlights the ideas of nationality, homeland, and freedom in the poet’s works. It also examines the ideological and artistic features of his and its connection with the literary process of his time.

Keywords: Jadid movement, “Ravnaq ul-islom”, creative heritage, nationality, freedom, literary process.

Kirish

1909 yilda otasining vafoti munosabati bilan u Toshkentga qaytadi va shahardagi savdo shirkatlaridan birida ish yurituvchi bo‘lib ishlaydi. 1910-yillardan boshlab Tavallo “Tavallo” taxallusi ostida matbuotda she‘r va maqolalar bilan faol ijodiy faoliyatini boshlaydi.

1915 yilda u Avloniy tashabbusi bilan tuzilgan “Turon” jamiyatining faol a‘zolaridan biriga aylanadi.

1916-yilda "Ravnaq ul-islom" she‘riy to‘plamini yaratgan. Bu to‘plam 1993-yil Begali Qosimov tomonidan so‘zboshi va izohlar bilan to‘ldirilib, qayta nashr qilinadi.

Tavallo 1883 yilda Toshkentning Ko‘kcha dahasidagi Obi Nazir mahallasida o‘ziga to‘q Xo‘jamyor Jiyanboev oilasida tavallud topgan. U dastlab eski usuldagi maktabda savod chiqargan, keyinchalik “Beklarbegi” madrasasi hamda rus-tuzem maktabida ta‘lim olgan. Shoirning otasi Xo‘jamyor savdo ishlari bilan shug‘ullanib, Avliyoota va Prjevalsk shaharlari bilan tijoriy aloqalarga ega bo‘lgan. Yosh To‘lagan 17 yoshida, ya‘ni 1900 yilda otasining tavsiyasi bilan Prjevalsk shahriga borib, Usmonbek Solihjonboev xizmatida ish yurituvchi sifatida faoliyat boshlagan.

Tavallo asarlarida milliy uyg‘onish, Vatan tuyg‘usi, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar hamda erkinlik g‘oyalari yetakchi o‘rin egallaydi. Shoir ijodi o‘z davrining adabiy jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini badiiy ifoda etishda o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan.

Tavalloning jadidchilik harakatiga kirib kelishi "Nashriyot" shirkati bilan bog‘liq. 1914 yil 30 avgustda Tavallo o‘z davrining ilg‘or ma‘rifatparvarlari, jumladan Munavvarqori, Abdulla Avloniy hamda boshqa ziyolilar bilan birgalikda Toshkentda “Nashriyot” shirkati tashkil etishda ishtirok etadi. Ushbu tashabbus orqali kitob nashr etish va ma‘rifiy ishlarni rivojlantirish maqsad qilingan edi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan jadidchilik harakati o‘zbek adabiyoti va ma‘naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan davr hisoblanadi. Bu davrda ijod qilgan shoir va yozuvchilar xalqni ma‘rifatli qilishga, milliy ongini yuksaltirishga

hamda erkinlik g'oyalari ga da'vat etishga xizmat qilganlar. Ana shunday ijodkorlardan biri Tavallo bo'lib, uning ijodi jadid adabiyotida muhim o'rin egallaydi.

Tavallo vatan mavzusiga alohida e'tibor beradi. «Suyukli Vatan haqida» she'ri shunday satrlar bilan boshlanadi:

Movarounnahr dur tarixda bizlarga Vatan,

Arzig'ay bizlar sanga xizmatda bo'lsak jonu tan.

Bu she'rdan Tavalloning vatanga bo'lgan muhabbatini ko'rishimiz mumkin.

Jamiyatda xotin-qizlarni o'qitish va tenglik munosabatlari haqida «Qarindosh va hamshiralarimiz mazluma qizlar tilindan» she'rini olaylik.

O'qutg'on so'ngra vergonda kuyov tengdoshimiz o'lsun,

Ikov ham ilmlik, yoshlikda birdek yoshimiz o'lsun.

Jahonda shod o'lub, hamoxirat qardoshimiz o'lsun,

Agar chollarga tushsak, zahr ichgon oshimiz o'lsun.

Ilohi, saqla bizni dunyoda mudoq falokatdan.

Ushbu she'rida qizlar otalariga murojaat etib, ularni turli xil halokat va qiyinchiliklardan himoya qilish maqsadida ta'lim berish, bilimli qilish hamda erkin yashash sharoitini yaratishni so'raydilar. Bundan tashqari, ular kelajakdagi oilaviy hayot masalasiga ham to'xtalib, tenglikka asoslangan, baxt va mehr-muhabbat ustuvor bo'lgan, sadoqatli turmushni orzu qiladilar.

Tavalloning "Ravnaq ul-islom" to'plamidagi she'rlari aruz vaznida bo'lsa ham undagi fikr va mazmun yangi.

Falak, bizga xabar ber, nechun be'tibor etding,

Jahonda barcha ellar ichra bizni sharmisor etding.

Jaholat rishtasiga band etib, rahm etmading hargiz,

Falokat handa qi uzra bugun bizni duchor etding.

Sharorat yomg'urini yog'dirub millatni boshiga,

Adovat otig'a otlantirib bizni suvor etding...

Shoir bunday she'rlari bilan xalqni milliy taraqqiyot sari yetaklagan peshqadam jadid ma'rifatparvarlari qatoridan mustahkam o'rin egalladi. Xalqning ijtimoiy, madaniy va

ruhiy hayotidagi illatlarni keskin fosh etuvchi she'rlardan iborat "Ravnaqul-islom" to'plamining chop etilishi esa davrning adabiy-ijtimoiy hayotida ulkan voqea bo'ldi.

Xulosa

Tavallo she'rlarini o'qir ekanmiz, ularda haqiqiy jadidona ruh, milliy uyg'onish kayfiyati yaqqol seziladi. Uning ijodida mustamlaka zulmiga nisbatan norozilik va ichki isyon, ilm-ma'rifatga bo'lgan kuchli intilish hamda millat taqdiriga chuqur qayg'urish kabi tuyg'ular mujassam bo'lgan. Shoir asarlarida xalqni uyg'otish, uni jaholatdan chiqarish va erkin, ma'rifatli jamiyat sari yetaklash g'oyasi asosiy o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2004.
2. Naim Karimov. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2008.
3. Begali Qosimov. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – Toshkent, 2008.
4. Tavallo. Ravnaq ul-islom. T., «Fan», 1993.